

## I. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yilning 1 iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 57499 tani tashkil qilib, shundan 44935 tasi yoki 78,1 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasiga 35099 ta (61,0 foizi), savdo 5477 ta (9,5 foizi), sanoat 4417 ta (7,7 foizi), qurilish 2107 ta (3,7 foizi), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 1500 ta (2,6 foizi) sohalariga to'g'ri keladi.

### 2018 yilning 1 iyul holatiga korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>
<b>Jami</b>	57499	<b>100,0</b>	44935	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	35099	61,0	23755	52,9
Sanoat	4417	7,7	4178	9,3
Qurilish	2107	3,7	1939	4,3
Savdo	5477	9,5	5111	11,4
Tashish va saqlash	767	1,3	733	1,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1500	2,6	1415	3,1
Axborot va aloqa	413	0,7	382	0,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	528	0,9	518	1,2
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	7191	12,6	6904	15,3

Ro'yxatga olingan korxonalar umumiy sonining 6,7 foizi davlat mulki shaklidagi korxonalar hisoblanadi. Nodavlat mulki shaklidagi korxonalar 93,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 9,0 foizi xususiy korxonalar 0,6 foizi chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar, 0,6 foizi aksiyadorlik jamiyatlari va 83,7 foizi boshqa korxonalar ulushiga to'g'ri keldi.

**Ro'yxatga olingan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar**  
(umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)



2018 yil yanvar-iyunda jami 3827 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan. Ularning asosiy qismi Samarqand shahrida (18,9 foizi), Qo'shrabot tumanida (7,3 foizi), Payariq tumanida (8,4 foiz), Pastdarg'om (9,8 foiz), Ishtixon (7,4 foiz), Urgut (7,0 foiz), Samarqand (5,8 foiz), Kattaqo'rg'on (5,9 foiz) va Jomboy (3,5 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning 45,7 foizi qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi, 12,7 foizi savdo, 13,2 foizi sanoat, 9,9 foizi boshqa sohalar, 8,0 qurilish hamda 6,4 foizi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Hisobot davrida 1180 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 156 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 13,2 foizi) ixtiyoriy tugatilish tartibini qo'llash orqali tugatilgan.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyul holatiga viloyatda jami 335 ta xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar mavjud bo'lib, ulardan 253 tasi qo'shma korxonalar, 82 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning ulushi, foizda



### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni va ulushi

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahri (177 ta yoki 52,8 foizi), Urgut tumanida (37 ta 11,0 foizi), Jomboy (25 ta 7,5 foizi), Samarqand (18 ta 5,4 foizi), Tayloq (14 ta 4,2 foizi), Oqdaryo (14 ta 4,2), Pastdarg'om (113,3) va Kattaqo'rg'on shahrida (9 ta 2,7 foiz), Bulung'ur va Nurobod tumanlarida (7 tadan 2,1 foiz) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qo'shrabot va Kattaqo'rg'on tumanlari (1 ta 0,3 foizi), Payariq, Paxtachi va Narpay tumanlarida esa (3 tadan 0,9 foizi), Ishtixon (5 ta 1,5 foiz), hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.


	soni	ulushi, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>335</b>	<b>100,0</b>
Samarqand sh	177	52,8
Kattaqo'rg'on sh	9	2,7
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	14	4,2
Bulung'ur	7	2,1
Jomboy	25	7,4
Ishtixon	5	1,5
Kattaqo'rg'on	1	0,3
Qo'shrabot	1	0,3
Narpay	3	0,9
Payariq	3	0,9
Pastdarg'om	11	3,3
Paxtachi	3	0,9
Samarqand	18	5,4
Nurobod	7	2,1
Urgut	37	11,0
Tayloq	14	4,2

### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil yanvar-iyun oylari yakuni bo'yicha viloyatda jami 59 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy qismi Samarqand shahri (39 ta), Oqdaryo (5 ta), Urgut tumani (4 ta), Samarqand, Tayloq tumanlarida (3 tadan), Ishtixon (2 ta), Jomboy, Payariq va Pastdarg'om tumanlarida (1 tadan) tashkil etilgan. Qolgan tumanlarni xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan qatoriga kiritish mumkin.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 20 ta, savdoda 14 ta, qurilish va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi bo'yicha 9 tadan, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 ta, axborot va aloqa 1 ta hamda boshqa faoliyat turlarida 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

#### *Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda*



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda**



Sohalar kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyul holatiga eng ko'p sanoatda 214 ta (63,9 foiz), savdoda 46 ta (13,7 foiz), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 24 ta (7,2 foiz), boshqa turlarida esa 20 ta (6,0 foiz) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 3 ta (0,9 foiz), tashish va saqlash, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 4 tadan (1,2 foiz) xamda qurilish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 8 tadan (2,4 foiz) ni tashkil qilgan.


**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**

2018 yil 1 iyul holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni 17649 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyul holatiga qaraganda 10,1 foizga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining asosiy qismi ya'ni, 6039 tasi (34,2 foizi) Samarqand shahriga, 1684 tasi (9,5 foizi) Urgut, 1302 tasi (7,4 foizi) Pastdarg'om hamda 1304 tasi (7,4 foizi) Samarqand tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-iyun oylari davomida 2181 ta kichik tadbirkorlik sub'yektlari yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilga qaraganda 2,8 foizga oshgan.

Eng ko'p yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub'yektlari Samarqand shahrida (684 ta), Samarqand (204 ta), Urgut (157 ta) va Payariq tumanlarida (122 ta) tashkil etilgan. Eng kam yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub'yektlari esa Paxtachida (35 ta) hamda Narpayda (48 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'yektlari, birlikda




## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat roʻyxatidan oʻtgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 iyul holatiga 2063 tani tashkil etib, ulardan 1986 tasi yoki 96,3 foizi faoliyat yuritadi. Bu koʻrsatkich oʻtgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat roʻyxatidan oʻtganlarning hamda faoliyat koʻrsatayotganlarning umumiy soni oʻrtacha 39,1 foizga oʻsgan.


## Oilaviy korxonalar sonining oʻsish dinamikasi, birlikda



### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni, birlikda



### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qaralganda oilaviy korxonalarining 33,8 foizi yoki 671 tasi sanoat, 27,3 foizi yoki 542 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,2 foizi yoki 361 tasi savdo, 9,4 foizi yoki 186 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,7 foizi yoki 33 tasi axborot va aloqa, 1,1 foizi yoki 22 tasi qurilish, 0,8 foizi yoki 17 tasi tashish va saqlash, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 0,3 foizi yoki 6 tasi hamda 7,4 foizi yoki 148 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.